



**MA'MURIY HUQUQBULARLIK TO'G'RIDAGI ISHLARNI
HUQUQBULAR ISHTIROKISIZ KO'RIB CHIQISH**

Yangibayev Aybek Kidirbayevich

**Ichki ishlar organlarining ma'muriy faoliyati kafedrasini boshlig'i,
podpolkovnik, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20562831>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ma'muriy huquqbularlik to'g'risidagi ishlarni huquqbular ishtirokisiz (sirdan) ko'rib chiqishning huquqiy asoslari, shartlari va amaliyotda yuzaga kelayotgan tizimli muammolar kompleks tahlil qilingan. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda shaxsning himoyalani sh huquqini ta'minlash hamda prosessual tejamkorlik tamoyillari o'rtasidagi mutanosiblik masalalari o'rganilgan. Xususan, huquqbularni ishni ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida xabardor qilishning an'anaviy va zamonaviy (elektron) usullari huquqiy baholangan. Shuningdek, maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali ishlarni ishtirokisiz ko'rib chiqish amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilib, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy huquqbularlik, ishni ko'rib chiqish, huquqbular ishtiroki, sirdan ko'rib chiqish, xabarnoma, himoyalani sh huquqi, raqamli dalil, "E-Ma'muriy ish", prosessual tejamkorlik.

Аннотация: В данной научной статье проводится комплексный анализ правовых основ, условий и системных проблем, возникающих на практике при рассмотрении дел об административных правонарушениях без участия правонарушителя (заочно). Изучены вопросы баланса между обеспечением права лица на защиту и принципом процессуальной экономии в производстве по делам об административной ответственности. В частности, дана правовая

Contact: 99 826 99 56





оценка традиционным и современным (электронным) способам извещения правонарушителя о времени и месте рассмотрения дела. Также исследованы особенности практики заочного рассмотрения дел с использованием специальных автоматизированных средств фото- и видеофиксации, разработаны научно обоснованные предложения по внесению соответствующих изменений в Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности.

Ключевые слова: административное правонарушение, рассмотрение дела, участие правонарушителя, заочное рассмотрение, извещение, право на защиту, цифровое доказательство, «Е-Административное дело», процессуальная экономия.

Abstract: This scientific article provides a comprehensive analysis of the legal foundations, conditions, and systemic practical problems of considering administrative offense cases without the participation of the offender (in absentia). The issues of balancing the guarantee of a person's right to defense and the principles of procedural economy in administrative liability proceedings are studied. In particular, a legal assessment of traditional and modern (electronic) methods of notifying the offender about the time and place of the case review is provided. Furthermore, the specific features of the practice of considering cases in absentia using special automated photo and video recording devices are investigated, and scientifically grounded proposals for amending the Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Liability have been developed.

Keywords: administrative offense, case review, participation of the offender, review in absentia, notification, right to defense, digital evidence, "E-Administrative case", procedural economy.

Huquqiy demokratik davlatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash barcha davlat organlarining, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning eng





ustuvor vazifasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson huquqlari kafolatlari har qanday yurisdiktsion jarayonda, shu jumladan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda ham o‘zining to‘liq ifodasini topishi shart. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga (MJtK) ko‘ra, ishni ko‘rib chiqishda tortishuvchanlik, qonuniylik va obektiv haqiqatni aniqlash tamoyillari amal qiladi. Ushbu tamoyillarni ro‘yobga chiqarishning eng muhim shartlaridan biri – huquqbuzarlikda ayblanayotgan shaxsning ishni ko‘rib chiqish jarayonida bevosita ishtirok etishidir.

Biroq, amaliyotda har doim ham shaxsning ishtirokini ta‘minlashning imkoni bo‘larmaydi. Ba‘zida fuqarolar javobgarlikdan bo‘yin tovlash maqsadida ataylab chaqiruvlarga kelmaydi, ba‘zida esa yashash manzili o‘zgarganligi sababli xabarnomani olmaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda yo‘l harakati qoidalari va obodonlashtirish qoidalarining buzilishini avtomatlashtirilgan tarzda qayd etish tizimlarining joriy etilishi ishni huquqbuzar ishtirokisiz ko‘rib chiqish amaliyotini kengaytirdi. Shu nuqtai nazardan, qaysi holatlarda ishni huquqbuzar ishtirokisiz ko‘rib chiqish qonuniy va adolatli hisoblanadi, qaysi holatlarda esa bu inson huquqlarining buzilishi sifatida baholanadi, degan savol huquqshunoslik fanida dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ma‘muriy protsessda shaxsning himoyalani sh huquqi va ishda ishtirok etish kafolatlari masalasi doimo huquqshunos olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Xususan, ma‘muriy ishlarni yuritish mexanizmlari, isbotlash nazariyasi va shaxsning prosessual maqomi yuzasidan respublikamiz olimlaridan O.T. Xusanov, X.T. Odilqoriyev hamda soha mutaxassislari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan [1]. Shunga qaramay, mazkur tadqiqotlarda ko‘proq ma‘muriy javobgarlikning umumiy asoslari yoritilgan bo‘lib, raqamlashtirish sharoitida






ishlarni "sirtidan" ko'rib chiqishning o'ziga xos mexanizmlari va huquqiy oqibatlari to'liq monografik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Statistik ma'lumotlarga nazar tashlasak, mamlakatimizda yuz minglab ma'muriy ishlar aynan huquqbuzarning bevosita ishtirokisiz, turli elektron tizimlar va yozishmalar orqali qabul qilingan qarorlar asosida hal etilmoqda. Amaliyotda ma'muriy idoralar va sudlar qarorlari ustidan keltirilayotgan protest va shikoyatlarning aksariyati bevosita "mening ishtirokimsiz, menga xabar bermasdan ko'rib chiqildi" degan vajlarga asoslanadi [2]. Demak, huquqni qo'llash amaliyotida "tegishli tartibda xabardor qilish" tushunchasining aniq va qat'iy mexanizmlarini ishlab chiqish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham g'oyatda dolzarbdir.

Ishni huquqbuzar ishtirokisiz ko'rib chiqishning qonuniy shartlari

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 294-moddasi ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va burchlarini belgilaydi. Ushbu moddaning birinchi qismiga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko'rib chiqiladi. Bu umumiy (imperativ) qoida hisoblanadi.

Shu bilan birga, qonunchi mazkur moddada istisno holatni ham belgilab o'tgan: "Bu shaxs yo'qligida ish unga ishni ko'rib chiqish joyi va vaqti to'g'risida vaqtida xabar berilganligi haqida ma'lumotlar bo'lganda hamda undan ishni ko'rib chiqishni kechiktirish xususida iltimos tushmagan taqdirdagina ko'rib chiqilishi mumkin" [3]. Ushbu normaning tahlili shuni ko'rsatadiki, ishni huquqbuzar ishtirokisiz qonuniy ko'rib chiqish uchun ma'muriy yurisdiksiya organi (mansabdor shaxs yoki sudya) bir vaqtning o'zida quyidagi ikkita yuridik fakt mavjudligini tekshirishi shart:





1. Shaxs ishni ko'rib chiqish joyi va vaqti to'g'risida *vaqtida* va *tegishli tartibda* xabardor qilinganligini tasdiqlovchi hujjat (dalil) mavjud bo'lishi.
2. Shaxsdan uzrli sabablarga ko'ra (kasallik, xizmat safari va h.k.) ishni ko'rib chiqishni kechiktirish bo'yicha iltimosnoma (ariza) kelib tushmagan bo'lishi.

Agar ushbu ikkita shartdan birortasi bajarilmasa va ish shaxs ishtirokisiz ko'rib chiqilsa, qabul qilingan qaror qonunga xilof hisoblanadi va yuqori turuvchi organ yoki sud tomonidan bekor qilinishi lozim.

"Tegishli tartibda xabardor qilish" muammosi va elektron

xabarnomalar Amaliyotdagi eng jiddiy muammolardan biri bu – huquqbuzarni qanday usulda xabardor qilish to'g'ri va qonuniy hisoblanishi masalasidir.

An'anaviy usulda xabarnoma (chaqiruv qog'ozi) "O'zbekiston pochta" orqali buyurtma xat shaklida yuboriladi va olinganligi haqidagi kvitansiya ish yig'majildiga tikiladi. Biroq, bu jarayon ko'p vaqt talab qiladi, ko'p hollarda fuqarolar propiska qilingan manzilida yashamaydi. Natijada xatlar qaytib keladi yoki boshqa shaxslar (masalan, qo'shnisi) qabul qilib oladi. Bu holatda shaxs qonuniy xabardor qilingan hisoblanadimi? Oliy sud amaliyoti shuni ko'rsatadiki, agar chaqiruv qog'ozi shaxsan huquqbuzarga yoki uning voyaga yetgan oila a'zosiga imzo qo'ydirib topshirilmagan bo'lsa, shaxs xabardor qilingan deb hisoblanmaydi [4].

Bugungi kunda "E-Ma'muriy ish" tizimining keng joriy etilishi natijasida fuqarolarga SMS-xabarnomalar yuborish amaliyoti shakllandi. Biroq huquqiy jihatdan olib qaraganda, SMS xabar fuqaroning raqamiga yetib borganligi, ushbu SMS aynan o'sha shaxs tomonidan o'qilganligini 100 foiz kafolatlamaydi (telefon yo'qolgan bo'lishi, o'chirilgan bo'lishi yoki boshqa shaxs foydalanayotgan bo'lishi mumkin). Garchi qonunchilikka (masalan, Iqtisodiy prosessual kodeksiga) SMS





orqali xabardor qilish normalari kiritilgan bo'lsa-da, MJtKda SMS-xabarnoma "vaqtida xabardor qilinganligini tasdiqlovchi hujjat" sifatida aniq belgilanmagan. Bu ehtimoliy huquqiy bo'shliq bo'lib, kelgusida sud nizolariga sabab bo'lmoqda.

Huquqbuzarning ishtiroki qat'iy majburiy bo'lgan ishlarning o'ziga xosligi MJtKning 294-moddasi 2-qismida ishni ishtiroksiz ko'rib chiqish qat'iy taqiqlangan toifalar belgilangan. Unga ko'ra, mayda bezorilik, ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish kabi qator moddalarda ko'zda tutilgan ishlarni ko'rib chiqishda ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning hozir bo'lishi *majburiydir*. Agar shaxs ichki ishlar organi yoki sudga kelishdan bo'yin tovlasa, MJtKning 288-moddasiga asosan u ichki ishlar organi tomonidan majburiy keltirilishi (keltirish amaliyoti) mumkin.

Nima uchun bu toifadagi ishlarda sirtdan qaror qabul qilish mumkin emas? Buning sababi shundaki, ushbu huquqbuzarliklar uchun ma'muriy qamoq kabi insonning shaxsiy erkinligini cheklovchi jiddiy sanksiyalar ko'zda tutilgan [5]. Erkinlikni cheklash bilan bog'liq masalalarni shaxsning ishtirokisiz, unga o'zini himoya qilish, advokat yollash yoki dalillarni taqdim etish imkoniyatini bermasdan turib hal etish O'zbekiston Respublikasi qabul qilgan xalqaro inson huquqlari standartlariga (xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasiga) ziddir.

Maxsus avtomatlashtirilgan vositalar orqali qayd etilgan ishlarni ko'rib chiqish Ma'muriy jarayonda qonuniy tarzda ishtiroksiz ko'rib chiqiladigan eng yirik toifa – bu maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali aniqlangan huquqbuzarliklardir. MJtKning 17-1-moddasiga muvofiq, bunday holatlarda ma'muriy javobgarlikka transport vositasining mulkdori, yuridik shaxslarga tegishli bo'lganda esa – transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul bo'lgan shaxs tortiladi.





Ushbu jarayonda "aybsizlik prezumpsiyasi" o'ziga xos tarzda modifikatsiya qilinadi. Jarima solish to'g'risidagi qaror avtomatik tarzda shakllantiriladi va elektron imzo bilan tasdiqlanib, mulkdorga yuboriladi. Ish haqiqiy huquqbuzar ishtirokisiz va aniqlanmasdan (kamerada yuz ko'rinmasa ham) faqatgina obyektiv dalil (surat) asosida ko'riladi. Garchi bu amaliyot inson ishtirokini chetlashtirsa-da, mulkdorga qaror ustidan shikoyat qilish va agar transport vositasini boshqa shaxs boshqarganligini isbotlab bersa (masalan, ishonchnoma, ijara shartnomasi asosida), javobgarlikdan ozod etilish huquqi saqlab qolinadi. Bu tartib butun dunyoda e'tirof etilgan ma'muriy tejamkorlik va tezkorlik standartlariga to'la mos keladi [6].

Biroq, bu yo'nalishda ham takomillashtirish zarur bo'lgan o'rinlar mavjud. Masalan, obodonlashtirish qoidalarini (chiqindi tashlash) yoki jamoat joylarida chekishni aniqlovchi aqlli kameralar (Face ID yordamida shaxsni aniqlaydigan kameralar) joriy etilmoqda. Agar kamera yuzni noto'g'ri identifikatsiya qilsa, fuqaroning ishtirokisiz qabul qilingan qaror jiddiy huquq buzilishiga aylanadi. Shu bois, sun'iy intellekt xulosasini doimo inson (operator) tasdiqlashi kafolati qonunda aks etishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ma'muriy ishlarni yuritishda huquqbuzarning ishtiroki qonuniylik va adolatni ta'minlashning muhim shartidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishlarni asossiz ravishda shaxs ishtirokisiz ko'rib chiqish huquqiy nigilizmga, fuqarolarning davlat organlariga nisbatan ishonchi pasayishiga olib keladi. Ishlarni sirtdan ko'rish faqat qat'iy istisno sifatida va xabardor qilinganligi shubhasiz isbotlangan taqdirdagina amalga oshirilishi shart.

Amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining MJtK 294-moddasiga "xabardor qilish usullari" degan alohida qism kiritilib, unda tegishli xabarnoma deganda





nimalar (chagqiruv qog‘ozi, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" (My.gov.uz) dagi shaxsiy kabinetga xabar yuborish, maxsus SMS, telefon orqali audioyozuv) tushunilishi qat’iy ro‘yxat qilib belgilanishi lozim. Bu o‘rinda My.gov.uz orqali xabar yuborishni yuridik jihatdan an'anaviy buyurtma xatga tenglashtirish raqamli iqtisodiyot talabidir.


Ikkinchidan, ma'muriy ishlarni ko‘rib chiqishda "virtual ishtirok" (Videokonferensaloqa rejimida qatnashish) institutini joriy etish zarur. Agar huquqbuzar viloyatda yashasa, lekin huquqbuzarlik Toshkent shahrida rasmiylashtirilgan bo‘lsa, u yo‘l xarajatlari qilib kelmasdan turib, o‘zining hududidagi IIB yoki sud binosidan turib yoxud "E-Ma'muriy ish" mobil ilovasi orqali masofadan ishtirok etishi qonuniylashtirilishi kerak.

Uchinchidan, huquqbuzarning ishtiroki majburiy bo‘lgan holatlarda, agar u tizimli ravishda kelishdan bo‘yin tovlasa va uning manzili aniqlanmasa, ma'muriy ishlarni to‘xtatib turish va shaxsni qidiruvga berish (ma'muriy qidiruv) institutining huquqiy asoslarini MJtKga kiritish lozim. Chunki amaldagi qonunchilikda ma'muriy qidiruv instituti yetarli darajada reglamentatsiya qilinmagan va jiddiy huquqbuzarlar (mayda bezorilar, oilaviy zo‘ravonlar) muddat o‘tib ketishi munosabati bilan javobgarlikdan qutulib qolish holatlari uchramoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ishlarni yuritishdagi raqamli islohotlar qanchalik mukammal bo‘lmasin, ular insonning odil sudlovga bo‘lgan huquqini, jumladan, o‘z ishini ko‘rib chiqishda ishtirok etish huquqini buzmasligi kerak. Ma'muriy jarayonga insoniylik, shaffoflik va tezkorlik tamoyillarini kiritish huquqiy davlat poydevorini yanada mustahkamlaydi.

REFERENCES:

1. Xusanov O.T., Odilqoriyev X.T. Ma'muriy huquq: Darslik. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2021. – 412 b.





2. Zunnunov A. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy sud ishlarini yuritishda tortishuvchanlik tamoyilini ta’minlash muammolari // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2022. – № 4. – B. 58-64.
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.09.1994-y., 03/24/894/0112-son. – URL: <https://lex.uz/docs/97664>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori "Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida"gi qarori, 30.11.2018 y. № 35 // Oliy sud axborotnomasi, 2019 yil.
5. Yangibayev A.K. Ma'muriy majburlov choralarini qo‘llashda qonuniylikni ta'minlash muammolari va ularni hal etish yo‘llari // Huquq va hayot. – Toshkent, 2025. – № 6. – B. 45-51.
6. Административное право зарубежных стран: Учебник / Под ред. В.Я. Кикотя. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2020. – 351 с.
7. Qurbonov M. M. Raqamlashtirish sharoitida ma’muriy ishlarni yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. – Toshkent, 2024. – № 2. – B. 15-22.

